

Surxondaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-iyul dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. METAMA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 158 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 086 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyul oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 15 058,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 109,2 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 665,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 146,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 14 393,4 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 018,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 110,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 375 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 359 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyul oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 607,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 5 092,5 mlrd so'mni tashkil qililib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,1 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 90,8 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzugadoirhavola: [Ulgurjisavdohajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Uzun (60,1 m.) va Denov (146,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 473 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichikkorxona va mikrofirmalar soni 1 472 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyul oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 5 149,6 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga mas'ul: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A. Dusnazarov Tel: +99855 451 80 00 (7540)	Ijrochi: I. Yusupova Tel: +99855 451 80 00 (7541) e-pochta:info@surxonstat.uz	Manzil: 190108, Termiz sh. at-Termiziy ko'chasi,7-uy,
---	---	--	---